

XO‘JAYPOK OTA

Jonajon diyorimiz boy va go‘zal tabiati, xushmanzara qishloqlari, obod shaharlari, dilcash va mehnatkash odamlari bilan kishi qalbidagi iftixor hislarini jo‘sh urdiradi. Shu yurtning farzandiman, degan har bir inson ona-O‘zbekistoni-mizning qadimiy tarixi, Samar-qand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Marg‘ilon, Qo‘qon, Qarshi singari mashhur shaharlari, Oqsaroy, Registon, Minorai Kalon, Shohi Zinda, Ichan va Dishan qal‘a kabi ajoyib obidallari bilan, bunyod-korlikka yo‘g‘rilgan buguni bilan haqli ravishda faxrlanadi. Albatta, butun dunyoga mashhur ana shunday yodgorliklar, tarixiy joylarimiz bilan bir qatorda u yoki bu hududdagi ziyoratgohlarimiz ham qanchadan-qancha.

Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida Xo‘jaypok ota nomi bilan tilga tushgan qishloq ham ana shunday maskanlardan biri. Dehqonobod tumanining janubiy qismidagi adirlar bag‘rida joylashgan ushbu qishloq nafaqat xushmanzaraliligi, musaffo tabiati, balki “Xo‘jaypok ota” deb ataluvchi shifobaxsh bulog‘i bilan ham ovoza bo‘lgan.

Qishloqning tabaruk otaxon-laridan biri — Hamro boboning hikoya qilishlaricha, Xo‘jaypok ota ziyoratgohida qaynab turgan sho‘r suv ilgari chuchuk, ya‘ni ichish uchun yaroqli bo‘lgan, lekin chor mustamlakachilari qishloqqa bostirib kelgan kuni bir kechada sho‘r suvga aylanib qolgan ekan.

Qishloq markazida, tepalik yonbag‘rida Xo‘jaypok ota ziyoratgohi joylashgan. Uning shundoq yonida qaynab yotgan buloqlardan hosil bo‘lgan ko‘l mavjlanib turadi. Bahor tugab, yozning jazirama issiqlari boshlangach, bu yerga nainki Qashqadaryo, balki Surxondaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlaridan, boshqa hududlardan ham ziyorat-chilar kelishadi.

— Xo‘jaypok ota suvi o‘zining shifobaxsh xususiyati bilan ajralib turadi, — deydi qishloq vrachlik punkti shifokori Rustam Xoliyorov. — Semashko nomidagi Respublika ilmiy tadqiqotlar institutida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatib-diki, bu suv kishi organizmi, xususan, jigar, oshqozon-ichak, me‘da faoliyatini yaxshilaydi, darddan forig‘ etadi, eng asosiysi, turli toshmalarni — teri kasalliklarini davolashda juda qo‘l keladi. Bu yerning balchig‘i ham koni foyda — bo‘g‘in kasalliklariga, shamol-lashlarga shifo bo‘ladi. Zero, ushbu sho‘r suv tarkibida turli shifo-baxsh mikroelementlar mavjud-ligi aniqlandi. Shu bois ham so‘nggi yillarda bu yerga shifo izlab keluvchilar ko‘paydi.

...Xo‘jaypok ota ziyoratgohiga borgan kunimiz bu joy ziyorat-chilar bilan gavjum edi.

Bizni o‘ylantirgan narsa — ziyoratchilar va davo istab keluv-chilar uchun kerakli darajada sharoit yaratilmaganligi bo‘ldi. Qadamjo xo‘jalik markazidan 22 chaqirim olisda joylashgan bo‘lib, yo‘llari o‘ydim-chuqur, ichimlik suvi tanqis. Shaxsiy gigiyena nuqtai nazaridan ham mamnuniyat izhor etib bo‘lmaydi.

Xo‘jaypok otaga kelgan muta-saddilar yoki savobtalab samoya-dorlar bu yerda o‘zlari uchun zarur bo‘lgan tibbiy, maishiy sharoit yaratishga hissa qo‘shsalar, ayni muddao bo‘lardi.

Sodiqbek NORBOYEV